



Tadqiqot **UZ**

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 YANVAR
№24**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
4-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
24-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-4**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
24-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-4**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 24-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

**СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ
ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ**

| | |
|---|---|
| 1. Tojiboeva Umida, Zaitov E'lyor YOSHLARIMIZNI SOG'LOM FIKRLI VA BARKAMOL ETIB TARBIYALASH OLIY MAQSADIMIZ..... | 7 |
| 2. Muxamadiyev Hojiakbar Aslitdinovich TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHIDIR..... | 9 |



СОЦИОЛОГИЯ ВА ПОЛИТОЛОГИЯНИНГ ЖАМИЯТИМИЗДА ТУТГАН ЎРНИ

YOSHLARIMIZNI SOG'LOM FIKRLI VA BARKAMOL ETIB TARBIYALASH OLIY MAQSADIMIZ

Tojiboeva Umida

Ijtimoiy fanlar fakulteti

Ijtimoiy ish yo'nalishi, 2 kurs magistri

Ilmiy rahbar: Zaitov E'lyor

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd)

Tel: 975391193

tojiboeva.umida1993@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda hozirgi kunda yoshlarga oid davlat siyosat ilgari surilmoqda. Darhaqiqat o'tgan vaqt ichida, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning xuquq va qonuniy manfaatlarini ximoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi.

Kalit so'zlar: Yoshlar, mafkura, Buzg'unchi g'oyalari, mafkuraviy taxdid, Milliy istiqloq g'oyasi.

Yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar aqlili yosh avlod bilan bog'liq dolzarb masalalarni hal etish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar bilan bir qatorda, sohada yechimini kutayotgan muammoli masalalar ham saqlanib qolayotganligini ko'rsatmoqda. Bularga hozirda avj olgan buzg'unchi g'oyalarni o'zini ko'rsatmoqda. Buzg'unchi g'oyalarni inson va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabixlikka undaydigan, davlat va jamiyatni parokandalik va xalokatga etaklaydigan g'oyalardir. Bu kabi g'oyalar shovinizm, nigilizm, kosmopolitizm, bolshevizm, fashizm, terrorizm, aqidaparastlik singari yovuz g'oyalar bo'lib, insoniyatga taxdid solib kelmoqda. Bularning ko'pchiligi hozirgi zamonaviy dunyoda Axborot resurslari va Internet tarmoqlari orqali targ'ib etilayotganligi inobatga olish lozim.

Hozirgi dunyodagi mafkuraviy taxdidlardan yana bir keng tarqalgani aqidaparastlikdir. Aqidaparastlik – dogmatizm- фундаментализм- muayyan bir g'oya, tamoyil yoki nuqtai nazarga maxkam yopishib olish va boshqasini tan olmaslik. Aqidaparastlikning keng namoyon bo'lgan turi diniy aqidaparastlik. U ekstremizmning paydo bo'lishiga zamin yaratadi. Ekstremizm (lot. — o'ta, keskin) esa terrorchilik xarakatlarini xam o'z ichiga oladi. Pokistonda 800 ga yaqin diniy madrasalar mavjud bo'lib, ularda diniy ilmlar bo'yicha mutaxassislar emas, balki jangarilar tayyorlanayotganligini shu maqsad yo'lidagi urinish deb baxolash mumkin.¹ Bugungi kunda yer yuzida 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari bo'lib, ularning asosiy ish usullari jamoatchilik joylarida portlashlar sodir etish, odamlarni garovga olish, ekstremistik mazmundagi varaqalar tarqatish, siyosiy qotilliklarni amalga oshirish, tartibsizliklar keltirib chiqarish, kimyoviy yoki bakteriologik qurollardan foydalanish.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va terrorizm xavfidan xoli hech bir davlat yo'q ekan, qolaversa terrorizm kundan-kunga o'zining ish uslublarini yangilab borayotgan ekan, unga qarshi kurashning ilmiy pedagogik yo'nalishi – terrologik² pedagogika yo'nalishini joriy etishni dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'ydi. «Iroq va Suriyada Iroq va Shom islom davlatini o'rnatamiz, degan g'oya bilan yovuz, vahshiy bir kuch paydo bo'ldi. Bunday kuchlarning yosh-larimizni aldab,

¹ Xaydarov K.D. Milliy istiqloq g'oyasi fanidan ma'ruzalar. Samarkand. 2003 y.15-b.

² Terrologiya – terrorizm haqidagi fan. Terrorizmni psixologik jihatdan o'rganish.
<http://www.seikh.ru/dictionary/978/word/terologija>.2019 y 19 oktyabr.



o‘z qarmog‘iga ilintirishiga hech qanday imkoniyat bermasligimiz kerak»¹. Bunday yot g‘oyalar ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan bir paytda biz o‘z g‘oyalarimizdan og‘ishmasligimiz lozim.

2015- yil fevral oyida Mosul shahri markaziy kutubxonasi portlatilib, 10000 ga yaqin kitob yo‘q qilindi. Jangarilar qo‘lyozmalardan gulxan hosil qilishdi. Mosul shahar muzeyi eksponatlarini yo‘q qilishdi. ² Tarixdan ma‘lumki, xalqni ma‘naviyatidan, tarixidan ayirish uni qullikka mahkum qilishning bir usulidir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi ulug‘vor ishlarimizga to‘g‘anoq bo‘ladigan, halal beradigan qora kuchlar o‘z maqsadlarini “axborot xurujlari” orqali amalga oshirishlari mumkinligini ayniqsa yoshlar teran anglab yetmoqlari zarur. Buzg‘unchi g‘oyalar eng avvalo o‘smirlarning g‘oyaviy-siyosiy tajribasizligiga, vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmasligiga, milliy-ma‘naviy fazilatlarini to‘la shakllanib ulgurmaganiga tayanadi. Bu boradagi oila tarbiyasi ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayonlariga ulanib ketayotgani ayni muddaodir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: «Ozbekiston», 2015. –277-278-b

2. To‘laganov Sh. Sharh.uz eksperti. <http://sharh.uz>.

3. Xaydarov K.D. Milliy istiqlol g‘oyasi fanidan ma‘ruzalar. Samarkand.2003.15-b.

4. Terrologiya – terrorizm haqidagi fan. Terrorizmni psixologik jihatdan o‘rganish. <http://www.seikh.ru/dictionary/978/word/terologiya>.

¹ Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: «Ozbekiston», 2015. –277-278-b.

² To‘laganov Sh. Sharh.uz eksperti. <http://sharh.uz>.



ТА'ЛИМ-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR YO'NALISHIDIR

Muxamadiyev Xojiakbar Aslitdinovich

Jizzax viloyat yuridik texnikumi
“Ommaviy-huquqiy fanlar” kafedrası mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasiga munosabat bildirigan. Shuningdek, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, jumladan, professional ta'lim tizimida haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, yangi O'zbekiston, murojaatnoma, ta'lim-tarbiya, professional ta'lim, islohot, zamonaviy bilim, inson kapitali, inson resurslari, ustoz, o'quvchi.

*Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan,
ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi.
Shavkat Mirziyoyev*

Darhaqiqat, har qanday davlatni istiqboli unda unib-o'sayotgan yosh avlodning intellektual salohiyatiga bevosita bog'liq bo'ladi. Bu qarash o'z navbatida yosh avlodni ta'lim-tarbiyasiga bo'lgan e'tiborni kuchaytirishni talab etadi. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida shunday degan edi, -“Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga etishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz. Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak”.

Bugungi kunda mamlakatimizda Uchinchi renesansning ilk poydevorlari yaratilgan. Toshkent va Nukus shahrida, Namangan va Xorazm viloyatlarida prezident maktablari faoliyati 2019-yildayoq yo'lga qo'yildi. Muhammad Xorazmiy, Ibn Sino va Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan maktablar hamda Qoraqolpog'iston Respublikasida Ibroyim Yusupov, Jizzaxda Hamid Olimjon va Zulfiyaxonim, Namanganda Ishoqxon Ibrat, Farg'onada Erkin Vohidov, Andijonda Muhammad Yusuf, Qashqadaryoda Abdulla Oripov, Guliston shahrida Xalima Xudoyberdiyeva, Xiva shahrida Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy nomidagi ijod maktablari faoliyat yuritmoqda. Bu tashkil etilgan yangi va zamonaviy ta'lim maskanlari qisqa vaqt ichida o'z natijalarini ko'rsatmoqda.

Kelgusi yilda yurtimizda 10 ta Prezident maktabi, kimyo-biologiya, matematika, axborot texnologiyalariga ixtisoslashgan 197 ta maktab o'z faoliyatini boshlaydi.

“Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” g'oyasi ta'lim-tarbiya sohasidagi amalga oshiriladigan islohotlarimizning ustuvor vazifalarini belgilab beradi. Bu borada muhtaram prezidentimiz Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida quyidagi vazifalarni amalga oshirilishini ta'kidlab o'tdi. *Birinchi*dan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yamiz, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz. *Ikkinchi*dan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazamiz. *Uchinchi*dan, o'g'il-qizlarimizni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish va uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratamiz. Bir so'z bilan aytganda, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratiladi.

Bu tizimning huquqiy asosi 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi qonunda ham ko'rsatilgan bo'lib, jumladan, ta'limning eng quyi bo'g'inidan ya'ni, maktabgacha



ta'lim-tarbiyadan to oliydan keyingi ta'limgacha isloh qilindi. Butun hayot davomida o'qish tamoyili asosida kadrlarni qayta tayyorlar va ularning malakasini oshirish tizimi ham bosqichma bosqich takomillashtirilmogda. Maktabdan tashqari ta'lim esa beshta muhim tashabbus g'oyalari bilan boyitgan holda tashkil etilmogda.

Mazkur qonunda keltirilgan ta'lim turlari ichida mutloqo yangi ta'lim turi professional ta'lim joriy etildi. Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab mamlakatimizda Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimi tashkil etildi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshirildi. O'rta professional ta'lim esa kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida tashkil etildi. O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha o'quvchilarni o'qishga qabul qildi.

Ta'limning bu bo'g'inidan keyingi uzviylikni ta'minlash masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Chunki professional ta'limdan keyingi oliy ta'lim o'rtasidagi uzviylik ta'limdagi uzluksizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan davlatimiz rahbari Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishini hamda 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga birlashtirilishini aytib o'tdi.

Umuman olganda, olib borilayotgan islohotlarning eng asosiysi inson kapitaliga qaratilmogda. Ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishga katta kuch va mablag' ajratilmogda. Buni yurtboshimiz o'z ma'ruza va nutqlarida dunyo tajribasi asosida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga o'n, yuz barobar ko'p foyda keltirishini tez-tez takrorlamogda.

Inson resurslarini yanada takomillashtirish uchun esa ta'lim-tarbiya tizimi isloh qilinmogda. Zero, bugungi avlod istiqbolda o'z bilim va malakalari yordamida shaxsiy boylik va milliy boylikni yaratadi. O'zini va yurtini farovon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://president.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. 29.12.2020.
2. <https://lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. 2020 yil 23 sentabr.
3. <https://president.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. 2019 yil 6 sentabr.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 24-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(4-қисм)

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.01.2021

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000